



GLOBALLASHUV SHAROITIDA QIYOSIY TIPOLOGIYANING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Nafosat Xaydarova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qiyosiy tipologiyaning tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi oʻrni, uning shakllanish tarixi hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Qiyosiy tipologiyaning turli tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini qiyosiy oʻrganishdagi ahamiyati, til universalialarini aniqlashdagi roli hamda tarjima nazariyasi va chet tillarini oʻqitish jarayonidagi amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Wilhelm von Humboldt, Joseph Greenberg, Roman Jakobson, Noam Chomsky kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida qiyosiy tipologiyaning nazariy asoslari yoritib berilgan. Maqolada globallashuv sharoitida tillar va madaniyatlararo aloqalarning rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sunʼiy intellekt vositalarining qiyosiy tipologik tadqiqotlarga koʻrsatayotgan taʼsiri ham tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: qiyosiy tipologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, til universalialari, globallashuv, madaniyatlararo aloqa, tarjima nazariyasi, chet tillarini oʻqitish, tipologik tadqiqotlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль сравнительной типологии в лингвистике и литературоведении, её историческое развитие и современные направления исследований. В исследовании подчеркивается значение сравнительной типологии в анализе фонетических, лексических и грамматических особенностей различных языков, выявлении языковых универсалий и совершенствовании теории перевода и методик преподавания иностранных языков. Теоретические основы сравнительной типологии обсуждаются на основе научных работ Вильгельма фон Гумбольдта, Йозефа Гринберга, Романа Якобсона и Ноама Хомского. Кроме того, в статье анализируется влияние глобализации, межкультурной коммуникации, информационных и коммуникационных технологий и искусственного интеллекта на сравнительно-типологические исследования.

Ключевые слова: сравнительная типология, лингвистика, литературоведение, языковые универсалии, глобализация, межкультурная коммуникация, теория перевода, преподавание иностранных языков, типологические исследования.

Annotation. This article examines the role of comparative typology in linguistics and literary studies, its historical development, and contemporary research trends. The study highlights the significance of comparative typology in analyzing the phonetic, lexical, and grammatical features of different languages, identifying language universals, and improving translation theory and foreign language teaching methodologies. The theoretical foundations of comparative typology are discussed through the scholarly contributions of Wilhelm von Humboldt, Joseph Greenberg, Roman Jakobson, and Noam Chomsky. Furthermore, the article analyzes the impact of globalization, intercultural communication, information and communication technologies, and artificial intelligence on comparative typological research.

Key words: comparative typology, linguistics, literary studies, language universals, globalization, intercultural communication, translation theory, foreign language teaching, typological research.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida dunyo xalqlari oʻrtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy va adabiy aloqalarning tobora kengayib borishi turli tillarni chuqur oʻrganish va ularni qiyosiy jihatdan tahlil qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Xalqaro hamkorlikning



rivojlanishi, ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti, shuningdek, madaniyatlarning muloqotning jadallashuvi tillar va adabiyotlarni qiyosiy asosda o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, qiyosiy tipologiya tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida turli tillarning fonetik, leksik, grammatik va semantik xususiyatlarini o'zaro qiyoslash, ularning umumiy hamda o'ziga xos jihatlarni aniqlash, til tizimlaridagi qonuniyatlarni ochib berish vazifasini bajaradi. Mazkur fan nafaqat tillarning ichki tuzilishini chuqurroq anglashga xizmat qiladi, balki til universalialarini aniqlash, tarjima nazariyasini takomillashtirish, chet tillarini samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish hamda xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tipologiyaning shakllanishi va rivojlanishi tilshunoslik tarixidagi muhim ilmiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyoti davomida turli xalqlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishi natijasida tillarning o'xshash va farqli jihatlarga qiziqish ortib borgan. Ayniqsa, XIX asr qiyosiy tilshunoslikning ilmiy fan sifatida shakllanish davri bo'lib, bu davrda tillarni ilmiy asosda qiyoslashga qaratilgan tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilgan. Franz Bopp, Rasmus Rask va Jacob Grimm kabi olimlar hind-yevropa tillarini qiyosiy o'rganish orqali qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning nazariy asoslarini yaratdilar. Ularning ilmiy izlanishlari natijasida tillarning qarindoshlik munosabatlari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va rivojlanish qonuniyatlari aniqlanib, qiyosiy tadqiqotlarning metodologik poydevori shakllandi. Keyinchalik Wilhelm von Humboldt tillarni faqat tarixiy jihatdan emas, balki tuzilishiga ko'ra ham tasniflash zarurligini ta'kidlab, tipologik yondashuvning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U tillarni amorf, agglutinatив, flektiv va inkorporativ turlarga ajratib, tilning tuzilishi xalqning tafakkuri va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik masalasi qiyosiy tipologiyaning eng muhim nazariy yo'nalishlaridan biridir. Humboldtning "Til har bir xalqning dunyoqarashini aks ettiradi" degan fikri bugungi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Darhaqiqat, har bir til o'z egalarining tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Shu sababli tillarni qiyosiy o'rganish orqali nafaqat lingvistik hodisalarni, balki turli xalqlarning madaniy va ma'naviy dunyosini ham chuqurroq anglash mumkin. Til birliklaridagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, o'zaro tushunishni rivojlantirish hamda madaniyatlarning muloqotni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Qiyosiy tipologiyaning zamonaviy rivojlanishida til universalialari nazariyasi alohida o'rin tutadi. Bu borada Joseph Greenbergning ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tillarni qiyosiy tahlil qilish asosida barcha tillarga xos umumiy



qonuniyatlarni aniqlash mumkinligini isbotlashga harakat qildi. Uning tadqiqotlari natijasida til universalialari nazariyasi shakllanib, turli tillarda uchraydigan umumiy grammatik va sintaktik xususiyatlar ilmiy asosda tavsiflandi. Shuningdek, Roman Jakobson fonologik tizimlarni qiyosiy o'rganish orqali turli tillarda uchraydigan umumiy fonetik qonuniyatlarni aniqlash mumkinligini ko'rsatib berdi. Noam Chomsky esa universal grammatika nazariyasini ilgari surib, inson tillarining negizida umumiy grammatik tamoyillar mavjudligini ta'kidladi. Bu nazariyalar qiyosiy tipologiyaning ilmiy salohiyatini yanada kengaytirib, tillarni qiyosiy o'rganishning yangi metodologik asoslarini yaratdi.

Qiyosiy tipologiya nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik sohasida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Turli xalqlar adabiyotidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash, badiiy tafakkurning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish hamda adabiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish tipologik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi aloqalar tobora kuchayib borayotganligi sababli adabiy hodisalarning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda. Adabiyotlararo aloqalar, badiiy ta'sir va tipologik mushtaraklik masalalari turli xalqlar madaniyati va tafakkurining o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beradi. Shu jihatdan qiyosiy tipologiya adabiy asarlarni chuqurroq tahlil qilish, badiiy obrazlar, syujetlar, janrlar va uslublarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

XX asrning ikkinchi yarmida qiyosiy tipologiya va tipologik tadqiqotlar yanada rivojlandi. Ayniqsa, 1960–1970-yillarda U.K. Foxt, G.N. Pospelov, M.B. Xrapchenko va V.M. Jirmunskiy kabi olimlarning ilmiy izlanishlari adabiyot va til hodisalarini tarixiy-qiyosiy hamda tipologik nuqtai nazardan o'rganishning nazariy asoslarini takomillashtirdi. Ularning tadqiqotlari natijasida tipologik yondashuv nafaqat til va adabiyotning alohida hodisalarini, balki ularning rivojlanish qonuniyatlarini ham ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beruvchi samarali metod sifatida e'tirof etildi.

Bugungi kunda qiyosiy tipologiya ta'lim tizimida ham muhim o'rin egallaydi. Xususan, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ona tili va o'rganilayotgan tilning fonetik, grammatik hamda leksik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish o'quvchilarning tilni samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, tarjima nazariyasi va amaliyotida ham qiyosiy tipologiyaning ahamiyati katta bo'lib, u tillar o'rtasidagi ma'no, uslub va grammatik mosliklarni aniqlashga xizmat qiladi. Natijada tarjima jarayonining sifati oshadi, matnning mazmun va uslubiy xususiyatlarini to'g'ri yetkazish imkoniyati kengayadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi qiyosiy tipologiya sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron lug'atlar, raqamli til



korpuslari, sun'iy intellekt tizimlari va avtomatik tarjima dasturlarining yaratilishi katta hajmdagi til materiallarini qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkonini bermozda. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim va ilm-fan uchun keng imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, ayrim muammolarni ham yuzaga keltirmozda. Xususan, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining pasayishi, jonli muloqotning qisqarishi va tayyor axborotga haddan tashqari tayanish kabi holatlar kuzatilmoqda. Holbuki, shaxsning intellektual va ma'naviy kamoloti uchun mustaqil mutolaa, tanqidiy fikrlash va jonli muloqot muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqot jarayonida bilimlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va xulosalash ko'nikmalari shakllanadi. Shu sababli zamonaviy texnologiyalardan oqilona va me'yorida foydalanish, ularni an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy tipologiya tilshunoslik va adabiyotshunoslikning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli tillar va adabiy hodisalarning umumiy hamda o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu fan tillarning fonetik, leksik va grammatik tizimlarini chuqur o'rganish, til universalialarini aniqlash, tarjima sifatini oshirish hamda xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u turli xalqlar madaniyati, tafakkuri va dunyoqarashini chuqurroq anglash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qiyosiy tipologiya yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilmoqda va kelgusida ham ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash hamda globallashtirish sharoitida o'zaro tushunishni chuqurlashtirishda muhim o'rin tutishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi / o'quv qo'llanma. Muhamedova S.X., Asilova G.A., Kadirova X.B. – T.: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti. – 2022. – 255 b.
2. <https://tijst.org/index.php/USA/article/download/1504/1497>
3. <https://esiconf.org/index.php/TOSROF/article/download/5359/5320/10293>
4. <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/15?articlesBySimilarityPage=29>